



UDK:811.512

Lobar O'RALOVA,
Ingliz tili o'qituvchisi
E-mail:lobar_uralova@mail.ru

O'zDJTU dotsenti, PhD N.Maxmudova taqrizi asosida

THE ARTISTIC EXPRESSION OF THE ISSUE OF EDUCATION AND UPBRINGING IN JESSE STUART'S SHORT STORIES

Annotation

The article explores the artistic expression of the issue of education and upbringing in the stories of American writer Jessie Stuart, emphasizing the role of literature in shaping social and moral values. These works highlight the role of education in national development and the ideas of educating the younger generation with scientific knowledge and moral values. In analyzing Jesse Stuart's works, the power of education in creating social changes, the role of the teaching profession in bringing about changes in society, and its importance are revealed. In stories such as "The Moon Child from Wolfe Creek" and "Split Cherry Tree", the social and moral aspects of education, as well as the significance of patience, empathy, and the role of education in filling the gaps in society, are explored.

Key words: Education and upbringing, Jesse Stuart, Rural life, Teacher-student relations, Moral values, Society and education, Social changes, Modern and traditional education, Personal growth, Socialization, Generation gap.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В РАССКАЗАХ ДЖЕССИ СТЮАРТА

Аннотация

Статья исследует художественное выражение проблемы образования и воспитания в рассказах американского писателя Джесси Стюарта, подчеркивая роль литературы в формировании социальных и моральных ценностей. В этих произведениях раскрывается роль образования в национальном развитии и идеи воспитания молодого поколения с научными знаниями и моральными ценностями. В анализе произведений Джесси Стюарта раскрываются силы образования в создании социальных изменений, роль профессии учителя в изменениях в обществе и её важность. В рассказах, таких как "The Moon Child from Wolfe Creek" and "Split Cherry Tree", исследуются социальные и моральные аспекты образования, а также значимость терпения, сопереживания и роли образования в заполнении пробелов в обществе.

Ключевые слова: Образование и воспитание, Джесси Стюарт, Сельская жизнь, Отношения учителя и ученика, Моральные ценности, Общество и образование, Социальные изменения, Современное и традиционное образование, Личностный рост, Социализация, разрыв поколений.

JESSI STYUART HIKOYALARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASINING BADIY IFODASI

Annotatsiya

Maqola amerikalik yozuvchi Jessi Styuart hikoyalarida ta'lim va tarbiya masalasining badiiy ifodasini o'rganadi, adabiyotning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Ushbu asarlarda ta'limning milliy taraqqiyotdagi o'rni va yosh avlodni ilm-fan va axloqiy qadriyatlar bilan tarbiyalash g'oyalari yoritilgan. Jessi Styuart asarlarini tahlil qilishda, ta'limning ijtimoiy o'zgarishlar yaratishdagi kuchi, o'qituvchilik kasbining jamiyatdagi ahamiyati ochib beriladi. "Uolf Kriklik Oybola" va "Singan olcha daraxti" kabi hikoyalarda ta'limning ijtimoiy va axloqiy jihatlarini, shuningdek, sabr-toqat, hamdardlik va jamiyatdagi bo'shliqlarni to'ldirishda ta'limning ahamiyati masalalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim va tarbiya, Jessi Styuart, qishloq hayoti, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, axloqiy qadriyatlar, jamiyat va ta'lim, ijtimoiy o'zgarishlar, zamonaviy va an'anaviy ta'lim, shaxsiy o'sish, ijtimoiylashuv, avlodlararo tafovut.

Kirish. Ushbu maqola amerikalik zabardast yozuvchi Jessi Styuart hikoyalarida ta'lim-tarbiya masalasining har tomonlama tahliliga bag'ishlanadi. Adib ijodining ijtimoiy, axloqiy va ekologik jihatlarini batafsil o'rganish orqali, ushbu ish Styuart hikoyalarining Appalachi qishloq hayotidagi kurashlar va qadriyatlarini qanday aks ettirishini ko'rsatib beradi. Uning qahramonlari, ko'pincha, XX asr Kentukkisi madaniy landshaftida chuqur ildiz otgan shaxsiy va axloqiy dilemmalar bilan to'qnash kelib, umuminsoniy tajribalarni aks ettiradi.

Styuartning asarlari, xususan, "The Moon Child from Wolfe Creek" va "Split Cherry Tree" hikoyalari, ta'lim va tarbiya masalalarini tasvirlaydi. Bu asarlarda o'qituvchilik

kasbi va uning jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek, o'quvchilarning shaxsiy o'sishi va ijtimoiylashuvi masalalari yoritilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Adabiyotshunoslikda ta'lim-tarbiya masalasi har doim dolzarb mavzular qatorida bo'lib kelgan, chunki u jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, har bir yozuvchi o'z asarlarida ta'lim va tarbiya masalalarini markaziy mavzular sifatida aks ettirgan. O'zbek adabiyotida ham bu mavzu bir qator yozuvchilar asarlarida gavdalanadi. Ayniqsa, jadid adabiyoti vakillarining ijodida bu mavzular keng yoritilgan. Ta'lim-tarbiyaning ahamiyati va uning millat taraqqiyotidagi roli, yosh avlodni ilm-ma'rifatga chorlash kabi

g'oyalar bu davr adabiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. O'zbek adabiyotida ta'lim-tarbiyaga oid asarlar deyilganida avvalo Abdulla Avloniy tilga olinadi. Uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari O'rta Osiyoda pedagogika va tarbiya masalalari bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Bu asarda yoshlarning axloqiy tarbiya, ma'naviyat, oila va jamiyatdagi o'rni haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Jadidchilik harakatining yana bir yirik vakili, Fitrat, o'z asarlarida milliy va diniy ta'lim masalalariga katta e'tibor qaratgan. Uning "Oila" asari tarbiya, ayollar ta'limi, va oilaviy qadriyatlar haqida fikrlarni keng yoritadi. Fitratning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari uning barcha ijodiy faoliyatida aks etgan. Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Erkin Vohidov kabi yozuvchilar asarlarida ham ta'lim-tarbiyaning jamiyatni rivojlantirishdagi roli, yoshlarga bilim va axloqiy qadriyatlarni singdirishdagi ahamiyati keng yoritilgan.

Jahon adabiyotida ham bu mavzu ko'plab asarlarda asosiy mavzulardan bo'lib, turli nuqtai nazardan yoritilgan. Bu asarlarda nafaqat ta'limning ahamiyati, balki uning jamiyatdagi roli, shaxsni shakllantirishdagi ta'siri ham keng yoritilgan. Masalan, Charlz Dikenzning "Hard times" asarida ta'lim hamda tasavvur va ijodkorlikning muhimligi masalasi yoritilsa, Harper Lining "To kill a mockingbird" romanida esa rasmiy ta'lim tizimining cheklanganligi ta'kidlanadi va hayotiy bilim va axloqiy saboqlarni birlamchi o'ringa qo'yadi. Bernard Shouning "Pygmalion" asarida ta'lim ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kuchli vosita sifatida namoyon bo'lsa, Sharlotta Bronte ta'limning shaxsiy rivojlanish va ijtimoiylashuv uchun qudratli vosita ekanligini "Jeyn Eyr" asarida ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiy-madaniy, biografik, va ijtimoiy-tarixiy yondashuv tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu tahlil usullari orqali Styuart hikoyalaridagi ta'lim va tarbiya masalalarini chuqurroq tahlil qilish, uning asarlarini o'rganishning jamiyatdagi ta'lim tizimiga, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy o'zgarishlar, shuningdek, adabiyotdagi ta'lim va tarbiya masalalariga qo'shgan hissasini yanada aniqroq tushunishga imkon beradi. Tarixiy-madaniy va biografik usullarni qo'llash orqali Styuartning shaxsiy tajribalari uning hikoyalariga qanday ta'sir qilgani chuqurroq tushuniladi va bu adib asarlaridagi ijtimoiy mazmun tahlilini boyitadi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim-tarbiya masalasi Jessi Styuart asarlarida ham eng ko'p murojaat etilgan mavzular qatorida turadi. Adib bu mavzuni yoritir ekan, uning asarlarida o'qituvchilik kasbiga e'tibor alohida o'rin egallaydi. U bu kasbni ulug'lab, o'z asarlarida o'qituvchini bolalar va ularning oilalarini savodsizlik, qashshoqlikdan qutqaruvchi xaloskor qahramon sifatida g'ayrat bilan yoritadi. Uning fikriga ko'ra, "har bir o'qituvchi Amerika taqdiriga javobgar, chunki o'quvchilar ularning ta'siri ostida bo'lishadi. O'qituvchi o'z qo'lida buyuk mamlakatning taqdirini ushlab turadiki, boshqa hech bir kasb egasi bu ishni qila olmaydi. Barcha kasblar ushbu buyuk kasb mahsulidir". Shuning uchun ham yozuvchi ta'lim-tarbiya mamlakatni rivojlantiruvchi asosiy bo'g'in ekanligiga urg'u berib, bu mavzuga oid bir nechta asarlar yaratadi. O'qituvchilik faoliyati yillari davomida ma'rifiy qarashlari va tajribalarini mujassamlashtirgan "The Thread That Runs So True"(1949), "Mr. Gallion's School"(1959), va "To Teach, To Love"(1970) kitoblari shular jumlasidandir.

Ta'lim-tarbiya mavzusi Jessi Styuart hikoyalarida keng qamrovli tushuncha bo'lib, u insoniy qadriyatlar, shaxsiy o'sish, inson va tabiat uyg'unligi kabi mavzular bilan hamohanglikda tasvirlanadi. O'qituvchilik kasbi hamda o'zi unib-o'sgan Kentukki qishloqlari ta'sirida Styuart ta'limni faqat ilmiy bilimlarni egallash jarayoni emas, balki umr

davomida olinadigan hayotiy saboqlar va o'z-o'zini anglash jarayoni sifatida ham aks ettiradi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar Styuart hikoyalarida markaziy o'rinni egallaydi. O'qituvchi ta'lim beruvchi shaxsgina emas, balki u murabbiy va jamiyatda o'rnatilgan kasb egasi sifatida tasvirlanadi. Bu fidoyi qahramonlar ko'pincha turli xil qiyinchiliklarga duch kelishlariga qaramasdan ta'limning o'zgartiruvchi kuchiga ishonishadi.

Uning "Uolf Kriklik Oybola" ("The Moon Child from Wolfe Creek", 1963) hikoyasi ham xuddi shunday fidoyi o'qituvchi mavzusi yoritilgan asarlaridan biri bo'lib, unda o'n yetti yoshli o'qituvchi (Styuart) qanday qilib maktabdan qo'rqadigan bolani kuch ishlatmasdan yoki jazolamasdan maktabga kelishga undagani, maktabga moslashtirgani tasvirlanadi. Kuch va jazoning o'rniga u sabr va tushunishni tanlaydiki, bu sifatlar hozirgi zamonaviy o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablarga ham mos keladi. Hikoyada chetki bir qishloqda oilasi bilan yashaydigan Don Kramp ismli bola odamovi bo'lib, maktabdan qo'rqadi. Lekin u ov qilishda va hayvonlarga tuzoq qo'yishda ustasi farang. U har kuni tengqurlari bilan birga maktabga borish uchun yo'lga tushadi, ammo maktab binosiga yaqin masofa qolganda bolalardan ajralib, maktabni yaqindagi tog' tepasidan kuzatadi. O'quvchilar o'qituvchiga Donni oyoq-qo'lini bog'lab tutib kelishlari mumkinligini aytishadi, lekin yosh o'qituvchi bu ish foydasiz ekanligini, bu usul orqali uni yanada yovvoyi qilib qo'yish mumkinligini o'ylab, o'quvchilarga uni o'z holiga qo'yishlarini tayinlaydi. U otasi yovvoyi chorvani qanday qilib qo'lga o'rgatganini eslab, xuddi shu usulni Don Krampga nisbatan qo'llashga qaror qiladi: ishonchni qozonish uchun faqatgina sabr va mehr talab etiladi.

Asta-sekin Don maktabga yaqinlasha boshlaydi. Bir kuni u tanaffus paytida maktab hovlisida o'ynashayotgan o'quvchilarga qo'shiladi. Shunda ham u maktabga kirishga jur'at etolmaydi. Styuart sabr bilan kutishda davom etadi. U Donni o'z xohishi bilan maktabga kelishiga qo'yib beradi. Va nihoyat, o'qishning birinchi oyi nihoyasida Don zo'rlov va majburlashlarsiz maktab binosiga kirib, sinfdagi bolalarga qo'shiladi.

Hikoyada ta'limning insoniy jihatlari qalamga olinadi. O'qituvchining vazifasi faqatgina o'quvchilarga bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki ularning his-tuyg'ularini tushunishi va ularning hayotida ijobiy o'zgarishlarga sababchi ham bo'lishi kerak. "No, leave him alone," I said. "If he likes it up there that's quite all right with me. I don't believe in roping a boy hand and foot and carrying him inside a schoolhouse. You can tell him when you see him again the school here is a fine place. Tell him we have a good time playing and that you believe he will like it. Tell him to come on down. Tell him we don't have anything here that will hurt him." O'qituvchi Styuart Donni majburlab maktabga olib kelishni xohlamay, o'zgacha yo'l tutdi: uning o'z xohishi bilan maktabga kelishiga imkon yaratdi.

Shuningdek, ta'lim-tarbiyada sabr-toqat va insonlar haqida qayg'urish masalasi ham hikoyaning asosiy mavzularidan biridir. Muallif hikoyada o'qituvchining har bir o'quvchiga individual yondashishi kerakligi, moslashuvchan, sabrli, hamdard va o'quvchilar hayotidagi har qanday holatlarni tushunishga tayyor bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari suradi. O'qituvchining muammoga sabr bilan yondashishi oxir-oqibat o'z mevasini beradi. "Don had come to us. We hadn't run him down, tied his hands and feet and brought him to us either. He had come of his own accord." Hikoya so'nggida ishonch va tushuna bilish qobiliyati ta'limning asosiy elementlardan biri ekanligi o'z isbotini topadi.

Hikoyada yoritilgan yana bir mavzulardan biri bu ta'limda ijtimoiylashuv va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish masalasidir. Maktabga endi qadam qo'yayotgan Don Kramp alohidalikka moslashgan, unda qo'rquv va o'ziga ishonchsizlik kabi salbiy tuyg'ular mavjud edi. Uning maktabga, o'qituvchi va o'quvchilarga moslashishi uchun, albatta, vaqt talab etilardi. Donning maktab muhitini sekinlik bilan qabul qilishi, bolalarning o'yinlarini tomosha qilish asnosida oxir-oqibat bu o'yinlardagi ishtiroki uning jamiyatga moslashishidagi ilk qadamlarini aks ettiradi. "He stood and watched and clapped his hands and laughed loudly at times. He kept getting closer to the circle of pupils marching around and around singing The Neyedle's Eye. Before the weyke was over, he joined the circle and played with the pupils." Hikoya ta'limning bilim berishdan tashqari odamlarni ijtimoiylashuviga ham xizmat qilishini, maktab umumiy tajribalar va jamiyatda o'z o'rnini topish uchun vosita ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Styuart hikoyalarida ko'pincha ta'limning axloqiy va ma'naviy tomonlari ham yoritiladi. Qahramonlar maktabda ta'lim olish jarayonida nafaqat ilmiy fanlarni, balki halollik va mehnatsevarlik kabi axloqiy qadriyatlarni ham o'rganadilar. Bunday hikoyalarda yosh qahramonlarga, odatda, yoshi ulug', dono shaxslar tomonidan yo'l-yo'riq ko'rsatiladi hamda ular o'z tajribalari orqali hayotiy saboqlar olishadi. Bu kabi hikoyalar qatoriga "Singan olcha daraxti" ("Split cherry tree", 1939) hikoyasini kiritish mumkin.

Hikoya Kentukki qishloqlaridan birida sodir bo'ladi. Yuqori sinf o'quvchisi Deyv ismli bola sinfdoshlari bilan dala mashg'ulotlari vaqtida olcha daraxtiga chiqib, daraxtni bexosdan sindirib qo'yishadi. Qolgan o'quvchilar daraxt egasiga pul to'laydilar, lekin Deyvni to'lashga puli bo'lmaganligi sababli tabiiy fanlar o'qituvchisi Professor Herbert uni o'rnidan to'laydi, lekin evaziga u Deyvdan darsdan so'ngra sinfni tozalab, qarzini to'lashi kerakligini aytadi.

Deyv maktabdan uyiga kech qaytganda otasi, qattiqqo'l va ta'lim ko'rmagan Lastr Sextonning jahli chiqadi. O'g'lining jazolanish sababini bilgach, yanada jahl otiga minadi. Chunki, u maktabning vazifasi faqat savod chiqarishdan iborat, deb o'ylab, o'g'lining qarzini to'lash uchun ishlab berishi kerakligini ahamiyatsiz narsa deb tushunadi. U maktabga qurol bilan borib, Deyvni maktabdan keyin ushlab qolayotgani uchun Professor Herbert bilan uchrashishga qaror qiladi.

Maktabga borgach, avvaliga Lastr Professor Herbertni do'q-po'pisa bilan qo'rqitadi, Professor esa vaziyatni vazminlik bilan tushuntiradi hamda maktabni aylantiradi. U Lastrga maktabda o'qitiladigan turli xil fanlarni, biologiya va tabiiy fanlarni o'qitilish jarayonini ko'rsatib, zamonaviy ta'limning muhimligini ko'rsatadi. Lastr esa o'g'lining olayotgan bilimi qadri tushunishni boshlaydi va dunyoning o'zini yoshlik davridan ancha o'zgarganini anglaydi.

Hikoya nihoyasida, Lastrning zamonaviy ta'limga nisbatan fikri o'zgaradi. Deyvning o'qishni davom ettirishiga ruxsat beradi, hattoki qarzini to'lashi uchun unga o'z yordamini taklif qiladi. Hikoya ota va o'g'ilning murosasi bilan yakun topadi.

Bu hikoyada ta'limning eskicha an'anaviy va yangicha zamonaviy yondashuvlari o'rtasidagi tafovut yoritilgan. Eskicha qarashlarga sodiq kambag'al ota va zamonaviy maktab o'qituvchisi Professor Herbert orasidagi munosabatlar orqali bu ziddiyat ochib beriladi. Ota jismoniy mehnat, hayotiy tajriba va

amaliyotni rasmiy ta'limdan ustun qo'yadi. U maktabni o'z yoshligidagidek tasavvur qiladi, ta'limning yangi usullariga ishonmaydi. U avvaliga maktabni oddiy savod chiqarish maskani sifatida ko'radi. "I could tell Pa that school had changed in the hills from the way it was when he was a boy, but he wouldn't understand. I could tell him we studied frogs, birds, snakes, lizards, flowers, insects. But Pa wouldn't understand." Chunki u mashaqqatli mehnat va yashash uchun kurash mezonlariga ishonadi. Professor Herbert esa zamonaviy ta'limning timsoli bo'lib, ilm-fan, tadqiqot, izlanish va aqliy salohiyatga urg'u beradi. U ta'limning yangi, zamonaviy usullarini qo'llab, tabiiy fanlar va ilmiy kashfiyotlarga ahamiyat beradi. U o'z o'quvchilariga faqat darslikdagi bilimlarni emas, balki amaliy tajribalar orqali ham dunyoni o'rganishga o'rgatadi. "We have a big black snake over here we caught yesterday," says Professor Herbert. "We'll chloroform him and dissect him and show you he has germs in his body, too."

Hikoya rivojlangani sari otaning ta'lim to'g'risidagi qarashlari o'zgaradi. Maktabga tashrifi va Professor bilan mazmunli suhbatida ta'lim haqida kengroq va ijobiyroq taassurot qoldiradi. "jist readin', writin', and cipherin'. We didn't have all this bug larnin', frog larnin', and findin' germs on your teeth and in the middle o' black snakes! Th' world's changin'." U yangicha ta'lim o'quvchilarni tanqididagi fikrlashga o'rgatib, jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashtiradigan avlod qilib tarbiyalashga ishona boshlaydi.

Shu kabi birga, hikoyada ta'lim avlodlar o'rtasidagi tafovutni to'ldiradigan ko'priq vazifasini ham bajaradi. Ota va o'g'il qarashlaridagi eskicha va yangicha yondashuvlar ular orasida tushunmovchilikka olib keladi. Oxir-oqibat Lastrning o'qituvchining yangicha o'qitish usullariga rozi bo'lishi bu tushunmovchilikka barham beradi hamda eski va yangicha tafakkurga nisbatan otaning hurmati oshishiga xizmat qiladi. "School has changed from my day and time. I'm a dead leaf, Dave. I'm behind. I don't belong here."

Umuman olganda, "Singan olcha daraxti" hikoyasida muallif ta'lim-tarbiya masalasini yoritib, eski va yangicha o'qitish usullari o'rtasidagi ziddiyatga alohida e'tibor qaratadi. Bu orqali u qishloq hududlarida ta'limning qay darajada o'zgartiruvchi kuchga ega ekanligini, ya'ni odamlarning fikrlashini kengaytirib, qarashlarini o'zgartira olishini isbotlaydi. Bu ayniqsa, an'anaviy qadriyatlar zamonaviy haqiqatlar bilan yuzlashganda yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya mavzusi mohiyati Jessi Styuart asarlarida turli ko'rinishlarda aks etadi, ayniqsa qishloq hududlarda o'qituvchilarning yoshlarning ongi va dunyoqarashini o'zgartira olishga qodir ekanliklarini ta'kidlaydi. U an'anaviy va zamonaviy ta'lim qarashlari o'rtasidagi avlodlararo ziddiyatni samarali tarzda yoritadi, bu esa "Uolf Kriklik Oybola" va "Singan olcha daraxti" kabi hikoyalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning asarlarida sabr-toqat, hamdardlik va ta'limning jamiyatdagi bo'shliqlarni to'ldirish qudrati kabi asosiy mavzular chuqur o'rganilgan bo'lib, Styuartning ta'lim orqali, ayniqsa iqtisodiy jihatdan qolov hududlarda, odamlar va jamoalarni yuksaltirishga bo'lgan ishonchini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Blair E.L. Jesse Stuart: His Life and Works. – Columbia: University of South Carolina Pre., 1967 – 312p]
2. Lawrence J.C. A Theory of the Short Story. // The North American Review, Feb., 1917, Vol. 205, No. 735, pp. 274-286, Published by: University of Northern Iowa.
3. Le Master, J.R. and Clarke M. W. Jesse Stuart: Essays on His Work – Kentucky: The University Press of Kentucky, 1977. – 175 b.

4. Parker R. How to interpret literature : critical theory for literary and cultural Studies. - New York : Oxford University Press, 2019. - 515 p.
5. Stuart J. A Jesse Stuart reader: stories and poems. – New York: McGraw-Hill, 1963.- 342 p.
6. Stuart, Jesse. The Thread that Runs so True. – New York: Scribners, 1958. – 293 p.
7. Stuart, J. To Teach, To Love.- New York: The World Publishing, 1970- 324 p.
8. Sulaymonov Sh.,To'xsanov Q. Adabiyotshunoslik atamalarining qisqacha izohli lug'ati-Buxoro: "Buxoro", 2009.–162
9. Yo'ldosh QYo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari.–Toshkent: Kamalak, 2016.–464 b
10. <https://www.classicshorts.com/stories/cherry.html>